

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№3**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, mart.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukurimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikrarov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR..... | 40  |
| Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich                                                                               |     |
| SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI .....                                        | 44  |
| Boboqulov Sanjar Bahromqulovich                                                                                                      |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI .....                                           | 49  |
| To'xtabayev Oybek Odilovich                                                                                                          |     |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....                  | 56  |
| Ismailov Bobir Salomovich                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI .....                                           | 62  |
| Yangiboyev F.B.                                                                                                                      |     |
| MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....                                                          | 68  |
| Turayev Og'abek Kaxramonovich                                                                                                        |     |
| XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....                                                     | 75  |
| Yusupova Feruza Yo'ldoshevna                                                                                                         |     |
| BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....                                                           | 83  |
| Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li                                                                                                 |     |
| QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELAR ASOSIDA BAHOLASH .....                             | 89  |
| Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich                                                                                                 |     |
| ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH .....                                                          | 94  |
| Islamova Nargiza Mirzaxidovna                                                                                                        |     |
| TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....                                                                          | 104 |
| Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI .....     | 111 |
| Begamov S.X.                                                                                                                         |     |
| RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....                       | 116 |
| Zakhidov Azizbek Rustamovich                                                                                                         |     |
| HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                     | 125 |
| Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi                                                                                                      |     |
| SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....                                                                     | 129 |
| O'runboyeva Sotima Alisher qizi                                                                                                      |     |
| GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....                                  | 134 |
| Kaydarova Sitara Suranbay qizi                                                                                                       |     |
| KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....                                                   | 139 |
| Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich                                                                                                 |     |
| YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....                                                   | 145 |
| Jamalidinova Asalxon Saliyevna                                                                                                       |     |
| 2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI .....                                     | 151 |
| Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich                                                                     |     |



|                                                                                                                                                                                    |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI:<br>AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI .....                                                       | 155 |
| Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich                                                                                                                                                |     |
| ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ:<br>ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ .....                                                                   | 163 |
| Хайдарова Ёркиной Аскар кизи                                                                                                                                                       |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING<br>FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI .....                                                    | 170 |
| Mamatova Nodira Mirzavaliyevna                                                                                                                                                     |     |
| ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ<br>МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ<br>СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ ..... | 178 |
| Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна                                                                                                                  |     |
| MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING<br>AHAMIYATI .....                                                                                        | 186 |
| Yuldashova Nilufar Ziyabayevna                                                                                                                                                     |     |
| RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY<br>TAHLIL .....                                                                                     | 190 |
| Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich                                                                                                                                                |     |
| IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN<br>O'RTA QATLAM" MUAMMOSI .....                                                                            | 196 |
| Bafoev Farrux Jo'raqulovich                                                                                                                                                        |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                                      | 202 |
| Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna                                                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL<br>MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI .....                                     | 208 |
| Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi                                                                                                                                                 |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI<br>SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI .....                                                              | 214 |
| Usmanov Gafurjon Shavkatovich                                                                                                                                                      |     |
| QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI .....                                                                                                 | 220 |
| Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich                                                                                                                                |     |

# QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI

**Buriyev Xakim Toshimovich**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
“Biznesni boshqarish” kafedrası professori v.b., i.f.d.

ORCID: [0009-0005-9093-3844](https://orcid.org/0009-0005-9093-3844)

**Usmanov Ilxom Achilovich**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
“Biznesni boshqarish” kafedrası professori v.b., t.f.n.

ORCID: [0009-0004-4744-1775](https://orcid.org/0009-0004-4744-1775)

**Annotatsiya.** Moddiy ishlab chiqarishda samaradorlik va sifat nisbati har doim muhim muammo hisoblangan. Shu munosabat bilan qurilishda sifatni boshqarishning umumiy ishlab chiqarish bilan o'zaro nisbatini o'rganish bir qancha qarashlarga asoslangan. Mazkur maqolada XX asr davomida sifatni boshqarish rivojlanishiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ishlab chiqarish, sifat nazorati, sifatni boshqarish.

**Abstract.** The balance between efficiency and quality in materials production has always been an important issue. In this context, research into the relationship between quality management in construction and general manufacturing is based on several points of view. This article focuses on the development of quality management throughout the 20th century.

**Key words:** manufacturing, quality control, quality management.

**Аннотация.** Баланс между эффективностью и качеством в производстве материалов всегда был важной проблемой. В этом контексте исследование взаимосвязи между управлением качеством в строительстве и общим производством основано на нескольких точках зрения. В данной статье основное внимание уделяется развитию управления качеством на протяжении XX века.

**Ключевые слова:** производство, контроль качества, управление качеством.

## KIRISH

Zamonaviy qurilish ishlab chiqarishining asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ilmiy-texnik va texnologik yutuqlar qurilayotgan binolarning foydali xususiyatlarini oldindan rejalashtirish imkonini yaratmoqda. Buning amaliy ifodasi sifatida qurilish sohasida sifatni boshqarish tizimining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, qurilish kompaniyalarida sifatni boshqarishning ilmiy-uslubiy jihatlarini chuqur o'rganish va nazariy jihatdan asoslab berish kompaniyalarning sifat bo'yicha raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasining ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini tiklashga qat'iy bel bog'laganimizdan buyon qurilish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biriga aylandi. Eng asosiysi, barcha sohalar qatori qurilish tarmog'ida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ham inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilmoqda” [1].





## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish korxona va tashkilotlarida sifatni boshqarish masalalari U. Shuxart, Ye. Deming, J. Juran, A. Feygenbaum, G. Taguchi, K. Isikava, A. Glichev, I. Mazur, V. Shapiro, V. Buzyrev, V. Ogvozdin, A. Djabriyev, M. Ziyayev va R. Nurimbetov kabi xorijiy hamda mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan [2–14].

Mazkur tadqiqotlarda investitsion-qurilish jarayonida qurilish mahsuloti sifatini shakllantirish, qurilishda sifatni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek sifat menejmenti tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, tizimli yondashuv, axborot-mantiqiy va iqtisodiy-matematik modellash, tahlil va sintez, ekspertlar so'rovi hamda qiyosiy tahlil kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida qurilish sohasida sifatni boshqarish tizimlarining rivojlanish jarayonlari kompleks tarzda o'rganilib, nazariy manbalar, ilmiy maqolalar hamda amaliy tajribalar asosida umumlashtirish ishlari amalga oshirildi. Olingan natijalar qurilish ishlab chiqarishida sifatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va korxonalarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sifatni boshqarish bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlar natijasida ushbu jarayonning bir nechta darajalarini alohida ko'rib chiqish zarurligi aniqlangan [15]:

Sifatni ta'minlash (quality assurance) – mahsulotni yaratish jarayonida uning zaruriy xossalari va xarakteristikalarini shakllantirish jarayoni hamda natijasi bo'lib, ushbu xususiyatlarni mahsulotni saqlash, tashish va undan foydalanish jarayonida barqaror darajada saqlab turishni ham qamrab oladi.

Sifatni umumiy boshqarish (quality management) – tashkilotni sifatga yo'naltirilgan holda boshqarishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan faoliyatlar majmui hisoblanadi. Mazkur faoliyat doirasiga sifatni ta'minlash hamda sifatni nazorat qilish jarayonlari kiradi.

Sifatni boshqarish (quality control) – sifat menejmenti tizimining mahsulot yoki xizmat sifatiga qo'yilgan talablarning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ushbu tasnifdan kelib chiqib aytish mumkinki, korxonalar sifatni boshqarish tizimini joriy etishda uchta asosiy modeldan birini tanlash imkoniyatiga ega: faqat iste'molchilarning sifatga qo'ygan talablarini bajarishga yo'naltirilgan model, iste'molchilar talablarini qondirish bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan model hamda sifat standartlarini joriy etish va ularga qat'iy rioya qilishga asoslangan model.

Qurilish sohasida sifat strategiyalarining mohiyati investitsion loyihaning bosqichlari bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, investitsion loyiha ishlab chiqish, obyektning loyihalash hamda qurilish ishlarini amalga oshirish bosqichlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun sifatni boshqarish jarayoniga bo'lgan yondashuv turlicha bo'lishi mumkin.

Amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, sifat strategiyasini tanlash jarayoni ishlab chiqarishning kichik tizimlari bilan sifatni boshqarish tizimi o'rtasidagi o'zaro nisbatni aniqlashga bog'liqdir. Qaysi kichik tizimga ustuvor e'tibor qaratilsa, sifat strategiyasi ham aynan shu yo'nalishga mos ravishda shakllantiriladi. Mazkur ilmiy farazni asoslash maqsadida XX asr davomida sifatni boshqarish sohasida shakllangan ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.


Avvalo, "sifat" tushunchasining ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilishi tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Ilmiy menejment maktabi asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv tamoyillarida bajarilayotgan ishlarning sifati muhim mezonlardan biri sifatida qaralgan. Jumladan, F. Teylor tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv tizimida samaradorlikni aniqlashda ishning sifat darajasi muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etilgan. Natijada korxonalarda mahsulot sifatini nazorat qilish uchun maxsus sifat nazoratchilari (inspektorlar) lavozimlari joriy etilgan.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida nuqsonli yoki brak mahsulotlar uchun jarima choralarining qo'llanilishi ham sifat nazoratining shakllanishiga xizmat qilgan. Shu sababli sifatga yo'naltirilgan boshqaruv tizimining dastlabki bosqichi aynan shu davrdan boshlanganligini ta'kidlash mumkin. Nazorat tizimining joriy etilishi hamda o'lchov vositalaridan foydalanishning kengayishi sifatga asoslangan boshqaruvning muhim elementlaridan biri sifatida qaralgan (1a-rasm).

Mazkur yondashuvda sifat tushunchasi to'liq tizimli tarzda shakllanmagan bo'lsa-da, har qanday ishlab chiqarish amaliyoti mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatishi alohida e'tirof etilgan. Boshqaruv tizimining asosiy e'tibori ishlab chiqarish samaradorligiga qaratilgan bo'lib, sifat funksiyalari asosan tayyor mahsulotni tekshirish bosqichi bilan chegaralangan.



Bugungi kunda ham ayrim kichik qurilish tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlari to'liq tizimli shaklda yo'lga qo'yilmagan holatlar uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda sifat nazorati asosan yakuniy mahsulotni tekshirish bosqichida amalga oshiriladi. Shu jihatdan mazkur tarixiy model ayrim qurilish tashkilotlari faoliyatini tahlil qilishda metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarishda sifatni boshqarishni rivojlantirishning dastlabki bosqichlari

Sifat nazoratining statistik usullarini yaratish ushbu sohada erishilgan muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, sifat nazorati samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lishi lozim. Yoppasiga nazoratni qo'llash mahsulot tannarxining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sifat nazoratida statistik usullarning qo'llanilishi mahsulot sifatini ta'minlashning samarali va maqbul yechimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Amerikalik muhandislar G. Dodj, G. Roming va U. Shuxart tomonidan taklif qilingan nazorat xaritalari chetlanishlar bo'yicha nazorat tizimining asosini tashkil etgan. Ushbu usulda me'yoriy ko'rsatkichlardan chetga chiqqan holatlar nazorat obyekti sifatida qaraladi va ularning oldini olish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuxart xaritalaridan tashqari statistik nazorat usullari sifatida tarqalish diagrammasi, gistogrammalar, Pareto diagrammasi, "baliq skeleti" diagrammasi, "Olti sigma" usuli va boshqa vositalar ham keng qo'llaniladi.

Sifat bilan bog'liq xarajatlar modelini shakllantirish ham sifat menejmenti rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biridir. Amerikalik olim A. Feygenbaum o'zining mashhur "Zero Defect" nazariyasini ilgari surib, sifat korxona xarajatlari va mahsulot tannarxining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini asoslab bergan. Keyinchalik yapon olimi G. Taguchi hamda amerikalik olim F. Krossbi sifat xarajatlari tarkibi va ularni boshqarish konsepsiyalarini ilmiy jihatdan rivojlantirdilar. Ko'plab olimlar turli sohalarda sifat xarajatlari tarkibini turlicha talqin qilgan bo'lsalar-da, umumiy holda ularni ikki asosiy o'zaro bog'liq qismga ajratish mumkin: sifat bilan bog'liq yo'qotishlar hamda sifatni ta'minlash xarajatlari (1b-rasm).

Mazkur modelni qurilish tashkilotlari faoliyatini baholashda ham qo'llash mumkin. Sifatni boshqarish tizimiga yetarli darajada e'tibor qaratilgan tashkilotlarda materiallar sifati va bajarilayotgan ishlarning sifatini nazorat qilish muhim boshqaruv vositalaridan biri hisoblanadi. Bunda qurilish ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi ustuvor bo'lib, sifat nazorati esa uning barqarorligini ta'minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda sifat menejmenti amaliyoti sifatni boshqarish tizimining to'laqonli shakllanishini talab etadi. Bunga asos sifatida olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar xizmat qilgan. Ilmiy va amaliy izlanishlar natijasida XX asrning 50-yillarida ilk bor yalpi sifat nazorati (Total Quality Control) konsepsiyasi A. Feygenbaum tomonidan taklif qilingan. Mazkur konsepsiyada sifatni ta'minlash, nazorat qilish, nuqsonlarning oldini olish hamda boshqa jarayonlarni yagona boshqaruv mexanizmiga birlashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Yalpi sifat nazorati tizimida nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari, balki xom ashyo sifati, ishchi kuchi sifati, yordamchi jarayonlar sifati hamda boshqaruv sifati ham nazorat obyekti sifatida qaraladi. Shu bilan birga korxonada yagona sifat nazorati axborot bazasini shakllantirish ham nazarda tutiladi (1d-rasm).

Mazkur bosqichda ilk bor sifat nazoratining yagona hujjatlashtirilgan tizimlari shakllana boshladi. Natijada sifatni boshqarish ishlab chiqarishni boshqarish tizimidan alohida mustaqil boshqaruv yo'nalishi sifatida ajratildi. Sifatni boshqarish tizimining asosiy vazifalariga sifatga oid axborot oqimlarini shakllantirish, ularni qayta ishlash hamda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish kiritildi. Korxonada o'zaro bog'liq ikkita boshqaruv tizimining faoliyati sifatga bo'lgan e'tiborning ortishiga xizmat qildi.


Ushbu modelda sifatni boshqarish tizimining ahamiyati ishlab chiqarish tizimi bilan teng darajada baholanadi. Shu nuqtai nazardan qurilish tashkilotlarida ISO-9001 xalqaro sifat menejmenti tizimining joriy etilishi muhim tashkiliy bosqich hisoblanadi.

Boshqaruv tizimida ishlab chiqarish faoliyatiga oid axborotlar va qarorlar oqimi sifatga oid axborotlar bilan uyg'unlashadi hamda bir-birini to'ldiradi. Bunday sharoitda qurilish tashkilotlari faoliyatini baholashda qo'llaniladigan hajm ko'rsatkichlari bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ushbu tarmoqning ilmiy-uslubiy hamda boshqaruv tamoyillarini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada sifatni boshqarish konsepsiyasida zamonaviy ilmiy yutuqlarni qo'llash imkoniyatlari kengaymoqda.



XX asrning 80-yillariga kelib sifatni boshqarish g'oyasi nafaqat asosiy ishlab chiqarish jarayonlariga, balki korxona faoliyatining barcha jabhalariga keng joriy etila boshladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, korxona faoliyatidagi barcha jarayonlar va xodimlar tizimli ravishda qamrab olinmas ekan, iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirishga erishish qiyinlashadi. Natijada TQM (Total Quality Management) tizimining keng rivojlanishi kuzatildi (2a-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqarishda sifatni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari

O'zbekistonga kirib kelayotgan yirik qurilish kompaniyalari hamda elektron reytingda yuqori pog'onalarni egallagan milliy qurilish kompaniyalari investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida TQM tamoyillariga asoslangan sifatni boshqarish tizimining raqobatbardoshlikka erishishda muhim ustunlik berishini e'tirof etmoqdalar. Shu bilan birga, mazkur kompaniyalar ishlab chiqarish va sifatni boshqarish kichik tizimlarini tezkor modernizatsiya qilish hamda raqamlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning kengayishi hamda ekologik boshqaruv ahamiyatining ortib borishi qurilish sohasida sifatni boshqarish tizimlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

TQM tizimining asosiy g'oyasi ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida sifatni strategik maqsad sifatida belgilashdan iborat. Bunda boshqaruv tizimida sifat menejmenti yetakchi o'rin egallab, uning tarkibiga ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish elementlari ham integratsiya qilinadi (2b-rasm).

TQM tizimining so'nggi tajribalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tizimi kelajakdagi boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Qurilish kompaniyalari sifat menejmentini keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etib, unda nafaqat iste'molchilarning manfaatlarini, balki atrof-muhit barqarorligi hamda jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni ham inobatga olgan holda boshqaruv tizimini tashkil etishga intilmoqda. Sifatni boshqarishning yuqori darajasida kundalik ishlab chiqarish faoliyatining barcha jarayonlari sifat menejmenti tamoyillariga muvofiq tashkil etiladi.

TQM modelining zamonaviy talqini ISO-9001 xalqaro sifat menejmenti standartlarida o'z aksini topgan. Mazkur tizimning muhim elementlariga rahbariyat tashabbusi va yetakchiligi, xodimlarning faol ishtiroki, iste'molchiga yo'naltirilganlik, jarayonlarga e'tibor, doimiy takomillashtirish, tizimli yondashuv hamda boshqa muhim boshqaruv tamoyillari kiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy-uslubiy xulosalarga kelindi: qurilish korxonalari tomonidan tanlanadigan sifatni boshqarish modellarini shakllantirish jarayonida ikki muhim jihatga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, korxona strategiyasi va maqsadlarida ishlab chiqarish hamda sifatga bo'lgan yondashuv darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, sifatni boshqarish tizimining evolyutsiyasi hamda ilg'or xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish zarur hisoblanadi.

Mazkur omillarni kompleks ravishda hisobga olish qurilish korxonalarida sifatni boshqarish tizimlarini samarali tashkil etish hamda ularning sifat bo'yicha raqobatbardoshligini oshirishga muhim hissa qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2026-yil 26-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Shewhart W.A. Statistical Methods from the Viewpoint of Quality Control. – University of Illinois Press, 1939.
3. Деминг У.Э. Некоторые аспекты статистической логики в управлении качеством: пер. с англ. Ч. 1 / У.Э. Деминг // Методы менеджмента качества. – 2020. – № 1. – С. 48–55.
4. Исикава К. Японские методы управления качеством / сокр. пер. с англ.; науч. ред. и авт. предисл. А.В. Гличев. – М.: Экономика, 1988. – 215 с.



5. Джуран Д.М. Как следует понимать качество? Основополагающие концепции для практики управления / Д.М. Джуран // Методы менеджмента качества. – 2020. – № 4. – С. 20–26.
6. Taguchi G. An Overview of Taguchi Method: Evolution, Concept and Interdisciplinary Applications // International Journal of Scientific & Engineering Research. – 2013. – Vol. 4. – Issue 10.
7. Гличев А.В. Основы управления качеством продукции. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: РИА «Стандарты и качество», 2001. – 418 с.
8. Фейгенбаум А. Контроль качества продукции / сокр. пер. с англ.; науч. ред. А.В. Гличев. – М.: Экономика, 1986. – 471 с.
9. Андреева Т.А. Развитие интегрированной системы менеджмента качества и стратегического управления предприятий промышленности: дис. ... д-ра экон. наук. – Саратов, 2016. – 531 с.
10. Бузырев В.В., Юденко М.Н. Управление качеством в строительстве: учебное пособие для прикладного бакалавриата / под общ. ред. М.Н. Юденко. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2019. – 198 с.
11. Огвоздин В.Ю. Управление качеством. Основы теории и практики: учебное пособие. – 6-е изд. – М.: Дело и Сервис, 2009. – 304 с.
12. Джабриев А.Н., Зияев М.К. Управление качеством домостроительной продукции в условиях перехода к рыночным отношениям. – Т.: Фан, 1998. – 112 с.
13. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством: учебное пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 2003. – 334 с.
14. Nurimbetov R.I. Zamonaviy sifat menejmenti tizimi va uni joriy etish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – № 3. – В. 71–80.
15. O'zDSt ISO 9000:2016. Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at. – Т.: O'zdavstandart, 2016.
16. O'zDSt ISO 9001:2015. Sistema menedjmenta kachestva. Trebovaniya. – Т.: O'zdavstandart, 2016.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---